XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

141408, Kattaqo‘rg‘on t., A.Navoiy k., 1-uy.

2023 - yil 26 - iyul VI-84-119-7-96-K/23 Kattaqo‘rg‘on tuman hokimligi

Tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida

“2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston RespublikasiQonuni (Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 22-dekabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2022-yil 27-dekabrda ma’qullangan) va xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 31-dekabrdagi VI-73-287-7-96-K/22-sonli “Kattaqo‘rg‘on tumanining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga asoslanib, shuningdek tumanda bir qator ijtimoiy va iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish maqsadida tuman mahalliy budjetining 2023-yil I chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi mablag‘laridan foydalanish yuzasidan tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O.Tursunqulov)ning xulosasi va tuman hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (T.Jumanazarov)ning bildirgisini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining VI chaqiriq 84-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (O.Tursunqulov)ning 2023-yil 11-iyuldagi tuman mahalliy budjetining 2023-yil I chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risidagi takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin**.**

2. Xalq deputatlari tuman Kengashining “2023-yil I chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan foydalanish to‘g‘risida” gi qaror loyihasi regulation.gov.uz saytida umumjamoatchilik muhokamasidan o‘tganligi ta’kidlansin.

3. Tuman mahalliy budjetining 2023-yil I- chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi mablag‘lari hisobidan jami 318,0 (uch yuz o‘n sakkiz million) so‘m mablag‘ 1-ilovaga asosan yo‘naltirilsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 15-fevraldagi VI-75-22-7-96-K/23-son qaroriga asosan tuman hokimligi moliya bo‘limi ishchi xodimlarini moddiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida bir oylik ish haqlariga nisbatan 2023-yil olti oyi uchun ustamalar, rag‘batlantirish va mukofot pullari uchun

ajratilgan mablag‘dan iqtisod qilingan 38,2 mln so‘m mablag‘ 2023-yil iyul oyi uchun to‘lanishi inobatga olinsin.

5. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (O.Neyazov)ga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (O.Tursunqulov)ga ajratilgan mablag‘larni ishlatilishi ustidan nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

6. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (O.Tursunqulov)ga tuman mahalliy budjetiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (N.Vasiyev)ga mablag‘larni belgilangan tartibda o‘tkazilishini ta’minlash topshirilsin.

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (X.Tillayev) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari N.Jo‘lmatov zimmasiga yuklatilsin

Kengash raisi **J.Nasriddinov**

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tuman Kengashining
2023-yil 26-iyuldagi
VI-84-119-7-96-K/23-son qaroriga
1-ilova

Tuman budjetining 2023-yil I chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar va ajratiladigan mablag‘lar miqdori

t/r	**Mablag‘ ajratiladigan tashkilot nomi**	**Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi**	**Mablag‘ miqdori (mln. so‘mda)**	**Asos**
	jami		**318 000,0**	**(uch yuz o‘n sakkiz million)**
1.	Tuman hokimligi	2023-yil 24-maydagi № 50-7-96-F/23-sonli farmoyishiga asosan tuman hokimining o‘rinbosarlarini samaradorlik (KPI) ko‘rsatkichlari uchun oylik ish haqining 100% miqdorida moddiy rag‘batlantirish uchun	24 213,0	Tuman hokimligi moliya bo‘limining 2023 yil 18 iyuldagi 01/02-38-118-sonli xati
2.	Tuman hokimligi	Tuman hokimining 2023-yil 5-iyundagi №53-7-96-F/23-sonli farmoyishiga asosan tumandagi 1-sektor kotibiga joriy	29 100,0	
3.	Tuman hokimligi	“Nuroniy” jamoatchilik kengashi tuman bo‘limining 2023-yil 3-maydagi №1-sonli xatiga asosan qarovul, farrosh, haydovchi shtat birliklariga joriy yilning iyun-dekabr oylariga oylik maoshi uchun	25 986,0	
4.	Tuman hokimligi	Kattaqo‘rg‘on tumanlararo sudining 2022-yil 14-dekabrdagi №2-1402-2204/13896-sonli hamda 2022-yil 21-dekabrdagi №2-1402-2202/14847-soli hal qiluv qarorlariga asosan kompensasiya to‘lovi uchun	123 201,0	

5	Tuman hokimligi	Tuman hokimining jamoatchilik masalalari bo‘yicha maslahatchisiga joriy yilning iyun oyi ish haqi va rag‘batlantirish mablag‘lari uchun	15 800	Tuman hokimligi moliya bo‘limining 2023 yil 24 iyuldagi 01/02-38-128-sonli xati
		Tuman hokimligi va Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati ishchi xodimlarini moddiy jixatdan qo‘llab qo‘vvatlash maqsadida bir oylik ish haqlariga nisbatan ustamalar, uchun rag‘batlantirish va mukofot pullari 2023-yil iyul oyi uchun (68,9 mln.so‘m va 25% ajratma 17,3 mln.so‘m)	86 200	
6	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘lim	Tuman hokimligi moliya bo‘limi ishchi xodimlarini moddiy jixatdan qo‘llab qo‘vvatlash maqsadida bir oylik ish haqlariga nisbatan ustamalar, rag‘batlantirish va mukofot pullari 2023-yil iyul oyi uchun (10,8 mln.so‘m va 25% ajratma 2,7 mln.so‘m)	13 500	